Силикат таҳлили кимёвий схемаси одатда куйидаги тартибда амалга оширилади. Намуна ажратиб олингандан сўнг кремний кислота таркиби оғирликни ўлчаш усулида силикон тетрафторид -  $\text{SiF}_4$  ни эътиборга олмаслик йўли билан амалга оширилади. Филтрда кремний кислотаси ажралгандан сўнг темир, алюминий кальций ва магний оксидлари комплексцион метрик усулда аниқланди ва титан, фосфор, марганец, баъзан эса хром оксидлари фотоколориметрик усул ёрдамида аниқланди. Жараёнда алоҳида оксидларнинг оғирликларидан келиб чиққан ҳолда натрий, калий ва олтингугурт оксидини таркибидаги йўқотишлар аниқланди.

Фазали ўзгаришлар ва барқарорлик чегаралари ёки дифференциал термик тадқиқотлар соҳасида қоришма намуналарининг ўзгариши, яни термографик ва термогравиметрик таҳлил Ўзбекистон Фанлар Академияси

“Неорганик кимё институти” лабораторияси мудараси профессор З.Р. Қодирова билан ҳамкорликда Венгер дериватографиди Ф. Паулик-И. Паулик - Л. Эрдей тизимида амалга оширилди. Бир вақтнинг ўзида чизикли ўлчамларнинг ўзгариши (киришиш деформацияси) ва массанинг йўқотилиш эгри чизиклари билан синхрон равишда термик анализ эгри чизиги қайд этилди.

Ренгтограмма таҳлили анъанавий услубларда амалга оширилди. Маълумки, ренгтограммда модда кристалларидаги ўзига мос маълум бир ўлчамдаги қатламларо масофалар ҳамда модданинг ўзига хос маълум бир интенсивликда нурни қайтариши аниқланади. Бундай ҳолатда қоришма бирикмасининг ҳар бир кристали фақат ўзига хос кўрсаткични бераиши табиий.

Юқорида баён этилганлар фикрларга таянган ҳолда, қурилиш қоришмаси намуналарини дифракция натижалари  $MoK_{\alpha}$  кўринишда нурланиш берадиган Zr- филтрли ДРОН-4,0 ренгент нурланиш қурилмасида аниқланди. Ренгтограмма суратлари ренгент қурилмаси ҳисоблагичининг диск тезлиги 2 град/мин ташкил этган вақтда олинган. Тажриба жараёнида қурилмада ички эталон сифатида монокристалли кварц ишлатилган. Бунда кобальт нурланишининг тўлқин узунлиги -  $1,78529 \text{ \AA}^0$  ни, найчадаги кучланиш 25 kV ни ва накал трубкадаги ток кучи 20 kV ни ташкил этган.

Шундай қилиб барча бажарган изланишларимизда архитектура ёдгорликларининг ғиштли теримларида ишлатилган тарихий қурилиш қоришмаларини ҳамда реставрация мақсадлари учун яратилган янги гипс ва оҳак асосидаги модификацияланган қоришмаларини физик-кимёвий таҳлил қилишда юқорида баён этилган услублар бўйича ишлар ташкил этилди ва муҳим илмий натижалар олинди.

Адабиётлар таҳлили шуни кўрсатадики, қадимда қурилиш қоришмаларини тайёрлашда уларни физик-механик хусусиятларни яхшилаш мақсадида турли хилдаги органик қўшимчалардан фойдаланилган. Бундай қўшилмалар жумласига “ширеш”, туя сути - “сузма”, ёғочдан олинган елим, гуручни клейли суви, тухум оқи, декстрин, лимон кислотаси, шароб ва бошқаларни келтириш мумкин. Қоришмани сувга чидамликни ошириш мақсадида яъни, калций сульфатнинг сувда эрувчанлигини пасайтириш ва кальций сульфат дигидрантини ҳимоя қилувчи эримайдиган бирикмалар ҳосил бўлишига шароит яратиш учун гипсли боғловчи таркибига минерал полимер моддалар, пуццоланли хусусиятга эга бўлган қўшимчалар киритилган.

Бухоро меъморий ёдгорликларидаги тарихий қурилиш қоришмаларининг кимёвий таркиби ва юқорида кўрсатилган усуллардан фойдаланган ҳолда аниқланган модификацияланган қурилиш қоришмалари бўйича олиб борилган тадқиқотлар натижалари 1- ва 2- жадвалларда келтирилган.

Намуналарнинг номланиши	Ҳавода қурилган моддадаги оксидлар миқдори, умумий массага нисбатан % ҳисобида										ппп
	SiO <sub>2</sub>	Al <sub>2</sub> O <sub>3</sub>	Fe <sub>2</sub> O <sub>3</sub>	CaO	MgO	SO <sub>3</sub>	Na <sub>2</sub> O	K <sub>2</sub> O	P <sub>2</sub> O <sub>5</sub>	Cl <sup>-</sup>	
1B*)	24,63	4,04	2,40	39,92	3,00	0,68	0,48	0,50	0,01	0,02	23,90
1C	21,83	4,09	2,72	38,56	2,00	0,59	0,46	0,56	-	-	24,11

2B	15,89	3,22	2,70	40,30	2,50	0,71	0,49	0,61	-	0,02	33,14
3B	55,89	9,78	3,99	10,45	2,70	1,28	1,91	1,89	0,04	0,03	12,37

1-жадвал. *Исмоил Самоний мақбараси, Калон минораси ва Абдулазизхон мадрасасидан олинган қурилиш қоришмалари намуналарининг кимёвий таркиби*

\*) Белгиларга изоҳ:

1B- Исмоил Самоний мақбараси деворининг юқори қисмидан олинган намуна;

1C- Исмоил Самоний мақбараси деворининг пастки қисмидан олинган намуна;

2B- Калон минорасидан олинган намуна;

3B-Абдулазизхон мадрасасининг шарқий деворидан олинган намуна.

Юқорида келтирилган 1-жадвалдан кўриниб турибдики, Исмоил Самоний мақбараси, Минораи Калон ва Абдулазизхон мадрасасидан олинган намуналарининг кимёвий таркиби қуйидаги оксидлардан ташкил топган: SiO<sub>2</sub>, Al<sub>2</sub>O<sub>3</sub>, Fe<sub>2</sub>O<sub>3</sub>, CaO, MgO, SO<sub>3</sub>, Na<sub>2</sub>O, K<sub>2</sub>O.

Демак, Исмоил Самоний мақбараси (1B ва 1C) намуналарнинг асосий кимёвий таркиби кальций оксиди ва кремнийдан иборат. Минораи Калондан олинган намуналарнинг асосий кимёвий таркиби ҳам кальций ва кремний оксидларидан ташкил топган. Ўрганилган қоришма таркибида “ППП” таркиби мос равишда 23,9 ва 33,14 % ни ташкил этади. Ушбу мақолада тавсия этилган модификацияланган қурилиш қоришмасининг таркибини архитектура ёдгорликлардаги қоришма таркибига, яъни аслига жуда ўхшашлигини 2-жадвалда келтирилган маълумотлар кўриш мумкин.

Тавсия этилаётган қоришма таркибида ППП таркиби мос равишда 23,9 ва 33,14% ни ташкил этади.

Намуналарни номлаши	Ҳавода қурилган моддадаги оксидлар миқдори, умумий массага нисбатан % ҳисобида										ППП
	SiO <sub>2</sub>	Al <sub>2</sub> O <sub>3</sub>	Fe <sub>2</sub> O <sub>3</sub>	CaO	MgO	SO <sub>3</sub>	Na <sub>2</sub> O	K <sub>2</sub> O	P <sub>2</sub> O <sub>5</sub>	Cl	
1M	24,02	4,34	2,7	40,422	3,5	0,6	0,56	0,6	0,02	0,01	23,3
2M	16,05	3,32	2,45	40,22	2,58	0,71	0,5	0,65	-	0,03	33,54
3M	53,79	10,88	4,49	10,95	2,5	1,48	1,51	1,99	0,03	0,04	12,77

2- жадвал. *Модификацияланган қурилиш қоришмаларининг кимёвий таҳлил натижалари*

Исмоил Самоний мақбараси ва Калон минорасини қуришда ишлатилган қурилиш қоришмаларни техник адабиётларда келтирилган маълумотлар билан қиёсий таҳлиллари шуни кўрсатадики, IX – XII асрлардаги меъморий ёдгорликларда ишлатилган қоришмаларнинг асосий таркибини кальций ва кремний оксидлари ташкил этган. Бундан бир неча аср кейин яратилган ёдгорликлар, масалан, Самарқанддаги Шохи-Зинда ёдгорлигида ишлатилган қоришма таркибида нафақат ушбу оксидлар эмас, балки алюминий оксиди ҳам борлиги маълум [8]. Буни яна бир мисоли сифатида XVII аср ўртасида Бухоро шаҳрида қурилган Абдулазизхон мадрасаси (3B намунаси) қурилиш

қоришмаси намунасини ўрганиш асосида олинган ва 1-жадвалда келтирилган натижалардан келтириш мумкин.

Исмоил самоний Мақбараси ва Минораи Калонда ишлатилган қурилиш қоришмалари таркиби кейинги даврларда қурилган ёдгорликларда ишлатилган қоришма таркибидан алюминий оксидининг камлиги билан ажралиб туради. Ушбу ҳолатдан келиб чиқиб, кейинги асрларда қурилиш қоришмаси таркибига гилтурроқ қўшилганлиги ҳақида дастлабки хулосага келиш мумкин. Буни Абдулазизхон мадрасасида ишлатилган қурилиш қоришмасининг таркиби яна бир бор тасдиқлайди (1-жадвал, 3В намуна).

Ушбу ғояни тасдиқлаш ва фикрни асослаш учун ДТА таҳлили ўтказилди. Меъморий ёдгорликлардан олинган намуналарнинг ДТА таҳлилини ўрганиш натижалари 1а- 3а расмларда келтирилган. Ўрганиш жараёнида намуналарда 246 и 627 °С ҳароратларда экзотермик эффектлар, 162, 187, 220, 331, 376, 416, 489, 728 °С ҳароратларда эса эндотермик таъсирлар кузатилди.

1-3-расмларда Исмоил Самоний мақбараси, Калон минораси ва Абдулазизхон мадрасаси меъморий ёдгорликларидан олинган қурилиш қоришмаларнинг натижалари келтирилган. Ушбу меъморий ёдгорликларнинг қурилиш қоришмаларини ўрганиш натижалари шуни кўрсатадики,  $d = 0,756; 0,422; 0,306$  ва  $0,208$  нм да дифракция максимумлари пайдо бўлди [3]. Ушбу қийматлар қоришма таркибида гипс борлигини кўрсатади. Бундан ташқари қоришмада кварц ( $d = 0,334; 0,245; 0,228$  нм), албит ( $d = 0,310; 0,402$  нм) ва доломит ( $d = 0,290; 0,241; 0,219; 0,202$  нм) мавжуд.


Исмоил Самоний мақбараси девори пастки қисмидан олинган намуналарида ҳам дифракция максимумлари  $d=0,756; 0,427; 0,306$  ва  $0,208$  нм да пайдо бўлганлиги кузатилди. Ушбу натижалар қоришма таркибида гипс мавжудлигини кўрсатади. Бундан ташқари қоришма таркибида кварц ( $d=0,334; 0,245; 0,228$  нм), басанит ( $d=0,606; 0,281$  нм), альбит ( $d=0,310; 0,402$  нм), КПШ ( $d=0,324$  нм), клинознетит ( $d=0,893$  нм) и кальцит ( $d=0,187$  нм) ҳам бор.

Ушбу обида деворининг устки ва пастки қисмларидан олинган қоришма намуналарининг дифракция максимумлари ўлчамлари орасидаги фарқни қоришмалар турган шароитлар билан изоҳлаш мумкин. Тарихдан маълумки, ёдгорлик деворнинг пастки қисми анча вақт кўмилган ҳолатда бўлган ва шу сабабли бўлса керак у билан туташ бўлган тупроқ таркибидаги агрессив моддалар теримдаги қоришма ва ғишт тақрибларига сизилган. Шунинг учун деворнинг пастки қисми қоришмаси таркибида КПШ, клинознетит ва кальцит ҳосил бўлган бўлиши мумкин.

Абдулазизхон мадрасасининг қулаган шарқий деворидан олинган қурилиш қоришмаси намуналарида кварц ( $d=0,335; 0,246; 0,228$  нм) - 34,4%, альбит ( $d=0,406; 0,320$  нм) - 19,5%, слюда (19,5%), кальцит 0,1875 нм – 11,9%, доломит ( $d=0,304, 0,29$  и  $0,24$  нм) -7%, феррит-магний –хлорит -6,1 % и гипс ( $d = 0,427; 0,306$  и  $0,209$  нм) -1,6% ни ташкил этмоқда. Ушбу кўрсаткичлардан ушбу ёдгорлик ғишт терими қоришмасининг таркиби асосан оҳак ва гилтупроқдан ташкил топган деган фикрни асослайди.


Ўтказилган комплекс тадқиқотларда намуналар структурасини - тузилишини ўрганиш мақсадида Бухоро шаҳридаги Исмоил Самоний мақбараси, Калон минораи, Абдулазизхон мадрасаси ва Бухоро вилояти

Ғиждувон шаҳридаги Абдуҳолиқ Ғиждувоний меъморий ёдгорликлари деворларининг ғиштли теримида ишлатилган қурилиш қоришмаларидан олинган намуналар “В-150” маркали электрон микроскопи ёрдамида 100 марта катталаштирилган ҳолда ўрганилди. Ўзбекистон Миллий университетининг Фан ва технологиялар маркази олимлари билан биргаликда Бухоро архитектура ёдгорликларида ишлатилган қурилиш қоришмалари тузилишини электрон микроскоп ёрдамида ўрганиш бўйича олинган айрим дастлабки натижалар қуйида баён этилган.




1-расм. Исмоил Самоний мақбараси деворининг юқори қисмидан олинган намунанинг (1В) рентенограммаси






1а-расм. Исмоил Самоний мақбараси деворнинг юқори қисмидан олинган намунанинг (1В) ДТА натижаси




2-расм. Исмоил Самоний мақбараси деворнинг пастки қисмидан олинган намунанинг (1С) рентгенограммаси




2а-расм. Исмоил Самоний мақбараси деворнинг пастки қисмидан олинган намунанинг (1С) ДТА натижаси



3-расм. Калон минорасидан олинган намунанинг (2В) рентгенограммаси



3а-расм. Калон минорасидан олинган намунанинг (2В) ДТА натижаси



4-расм. Абдулазизхон мадрасасидан олинган намунанинг (3В) рентенотграммаси



4-расм. Абдулазизхон мадрасасидан олинган намунанинг (ЗВ) ДТА натижаси

Исмоил Самоний мақбарасининг юқори қисмидан олинган намунани ўрнаниш натижалари бу фикрни тасдиқлаб турибди. Структурадан қоришма таркибида гипс борлигини кўришимиз мумкин. Абдулазизхон мадрасаси қоришмасининг таркиби оддий тузилиши билан ажралиб туради. Ушбу қоришма таркибида ҳам оз миқдорда гипс борлиги маълум лекин, асосий таркибни кварц ва бошқа минераллар ташкил қилади.

Исмоил Самоний мақбараси ғиштин теримида ишлатилган қоришманинг юқори ва пастки қисмлар тузилиши орасидаги фарқни уларнинг ишлатиш шароитлари билан изоҳланади.

Исмоил Самоний мақбарасининг ғишт деворининг юқори қисмидан олинган қурилиш қоришмаси намунасининг тузилишида кристаллар ва ғоваклар тенг равишда тақсимланган, унда ёриқлар, катта бўшлиқлар ва бошқа шикастланишлар мавжуд эмас, ғоваклар ўлчамлари бир-бирига жуда ҳам яқиндир.

Электрон микроскоп ёрдамида олинган материаллардан тавсия этилган модификациялашган қурилиш қоришмасининг таркиби гипс, қум, цемент, қамиш кули ва оҳақ сүтидан иборат эканлиги маълум бўлди.

Минораи Калон дан олинган қурилиш қоришма намунасининг тузилиш ҳолатини ўрганиш ҳам унинг таркибида гипс, кварц куми, қамиш кули ва оҳақ сүти мавжудлигини билдирмоқда.

Абдулазизхон мадрасаси ғишт теримида ишлатилган тарихий қурилиш қоришма таркиби кварц куми, лой (слюда ва албит), қамиш кули, гипс ва оҳақ сүтидан иборат деган фикрни билдирмоқда.

### **Хулоса**

1. Исмоил Самоний мақбараси, Калон минораси ва Абдулазизхон мадрасаси ёдгорликлари деворларининг ғиштли теримида ишлатилган қурилиш қоришмаларини физик - кимёвий таҳлил қилиш натижалари уларни гипсли, гипс оҳақли ва лойга органик ва минерал қўшимчалар қўшиб ҳосил қилинган қоришмалар эканлигини англатади.

2. Бухорода IX- XVI асрларда яратилган меъморий ёдгорликларни реставрация қилиш ва қайта тиклашда, ушбу мақолада тавсия қилинган ишларга таянган ҳолда модификацияланган қурилиш қоришмалари яратиш бўйича изланишларни давом эттириш мақсадга мувофиқ.

### **СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННЫХ ИСТОЧНИКОВ:**

1. Бухара. Архитектурная эпиграфика Узбекистана. Ташкент. «Узбекистан Today». 2016 г.
2. Архитектура (ўзбек тилида). I бўлим – Архитектура тарихи. Ўқув қўлланма. Вахитов М.М., Мирзаев Ш.Р. Ташкент. “Тафаккур”, 2010 й.
3. Вахитов М.М. Тўлаганов А.А. Тожиев И.И. Конструкции и материалы, использованные при строительстве архитектурных памятников Бухары конца XIX века. “Фан ва технологиялар тараққиёти”/ Илмий-амалий журнал. 2018йил. №2. 159-168 б.
4. Горшков В.С., Тимашев В.В., Савельев В.Г. Методы физико-химических анализов вяжущих веществ. М, Высшая школа. 1981. 220 с.
5. 8. Kadirova Z.R., Kuryzov Z.M, Hujamberdiev M.I., Xodjaev N.T.Using Silt from Uzbekistan to Manufacture Ceramic Building Materials. Interceram, 2004, vol.53, N 4, p.246-248. (Germany).
6. Тимашев В.В., Леонов И.И. Технический анализ и контроль производства вяжущих материалов и асбестоцемента. М, Стройиздат, 1984, 289 с.
7. Современные методы химического анализа строительных материалов. М, Стройиздат, 1972, 170 с.
8. Камиллов Ш.Х. Исследование старинных растворов и разработка их новых составов для реставрации исторических памятников. Автореферат диссертации доктора философии (Рд) по техническим наукам. Ташкент. ТАСИ. 2019 г.

**Салохиддинова Дилором Зухуровна**  
**Магистр 201-группы «Здания и сооружения»,**  
**Мардонова Умида**  
**(Самарканд, Узбекистан)**

## **ВОЗНИКНОВЕНИЯ И ИСТОРИЯ РАЗВИТИЯ СПОРТИВНЫХ СООРУЖЕНИЙ**

**Аннотация** *Статья описывает основные исторические вехи появления и развития типологии спортивных сооружений с древнейших времен до наших дней.*

**Ключевые слова** *история архитектуры, спортивные сооружения, спорт, арена, физкультура, площадка.*

Спорт сопутствует жизни человеческого общества с незапамятных времен. Физическая культура и спорт своими историческими корнями уходят в глубокую древность. Археологические раскопки приносят сведения о примитивных постройках для физических упражнений, относящихся еще к каменному веку. Такие постройки найдены на территории Индии, Египта, Средней Азии и Южной Америки. К ним относятся так называемые кромлехи, т. е. площадки, окруженные каменными столбами. Развитие физической культуры, появление в обиходе разнообразных игр и спортивной борьбы вызывали необходимость строительства специальных сооружений, а новые сооружения оказывали, в свою очередь, влияние на прогресс развития спорта и физической культуры.

Предметы, служившие в древности для игр и спортивных соревнований, имели культовое значение, и именно они дают нам представление о понимании древними людьми сил природы. Например, диск у индийцев символизировал солнце и был атрибутом бога Вишну, игра в мяч у ацтеков была аллегорией борьбы дня с ночью, света с тьмой, причем игровая площадка символизировала небо, а мяч - вселенную. Кроме игр, на стадионах проходили другие культурные и ритуальные мероприятия, музыкальные представления и фестивали. Размер стадионов сильно различается, однако их форма одинакова - длинное узкое пространство между горизонтальными и наклонными стенами (изредка вертикальными). Стены были оштукатурены и ярко раскрашены. Ранние версии стадионов были открыты по краям, позже с двух сторон были добавлены замкнутые пространства, из-за чего при виде сверху




Рис. 1. Хочикалько (Мексика).

Площадка для игры в мяч в форме буквы I (первое тысячелетие нашей эры). Стадион был похож на букву I (рис. 1). Отношение длины к ширине в среднем составляет 4 к 1. Размеры стадиона в Тикале (всего 16 на 5 м, самый мелкий из найденных) в шесть раз меньше Великого стадиона (англ. Grand Ballcourt) в Чичен-Ице. Наиболее крупные стадионы располагались в центральных районах города и совместно с пирамидами и другими монументальными сооружениями были ориентированы согласно правилу. Резиновый мяч, известный индейцам Америки еще в третьем столетии до нашей эры, был в то время основой физических упражнений, явившихся первообразом игры с эластичным мячом, впоследствии распространившейся в Северо-Американских Соединенных Штатах. На стенах древнейших мексиканских игровых арен найдены кольца, прикрепленные перпендикулярно к стене на оси арены, сквозь которые бросали мяч во время игры; эти кольца справедливо могут считаться прообразом корзин американского баскетбола.

**Спортивные сооружения в древней Греции и Риме.** История эгейской культуры свидетельствует о распространении ранних форм физической культуры в восточном Средиземноморье в XXX - XII в. до н.э. Здесь были найдены обломки сосудов с изображениями лучников, акробатов, прыгающих через быков. При раскопках кносского дворца (Кносс - древний город на острове Крит) удалось обнаружить помещения, которые предназначались для занятий физическими упражнениями. Значительным явлением, характеризующим развитие древнегреческой физической культуры, были Олимпийские игры. Документальные данные приурочивают начало этих празднеств к 776 г. до н.э. С этого года начинается счет календарным четверлетиям - олимпиадам.

Наряду с общегреческими Олимпийскими играми во многих городах Греции проводились игры меньшего масштаба. Для проведения общегреческих и региональных игр было сооружено много стадионов, остатки которых обнаружены в Олимпии, Дельфах, Пирее, Милете и ряде других районов Греции. Античные стадионы относят к трем периодам: эллинскому, эллинистическому и древнеримскому.

**Основные характеристики некоторых стадионов  
Древней Греции и Древнего Рима**

Место нахождения	Дата сооружения	Размеры арены	Длина беговой дорожки м	Вместимость трибун чел
<b>Эллинский период</b>				
Олимпия	450 г. до н.э.	212 X 32 122,25 30 000		
Дельфи	Конец V в до н. э.	192 X 25,5 177,35 7 000		
Афины	330 г. до н. э	204 X 33,4 184,30 50 000		
<b>Эллинистический период</b>				
Милет	Вторая половина II в. до н.э	194,5 X 29,6 192,27 15 000		
Приена	Вторая половина II в. до н.э.	191 X 18 191,39 5 000		
<b>Древнеримский период</b>				
Перга	II в. н. э.	191,5 X 34 15 000		
Анциан	II в. н. э.	207,5 X 38 15 000		
Рим коллизей	80 г. н.э.	79,35 X 47,5 50 000		
Рим Циркус Максимум	I в. н.э.	500 X 100 250 000		

На древнегреческих стадионах раннего периода не было специальных устройств для зрителей. Как правило, зрители располагались на склонах холмов перед ареной. Стадион в Олимпии - первый из стадионов древности, имевший трибуны и послуживший прообразом последующих построек аналогичного назначения. Древние греки отлично знали основные принципы обеспечения хорошей видимости с трибун. Закругленная линия трибун (удобная для зрителей, сидящих в одном ряду) сохранялась без существенных изменений в римскую эпоху и даже дошла до наших дней. На арене Олимпийского стадиона устраивались грунтовые дорожки, которые размечались для одновременного бега 20 человек. Линии старта и финиша обозначались плитами.

Древнеримский период строительства стадионов относится ко времени формирования древнеримской империи (начало н.э.). В это время происходит реконструкция многих стадионов эллинского периода. Во II в. н.э. подверглись реконструкции стадионы в Афинах и Дельфах. В связи с возросшим количеством участников соревнований были расширены арены этих стадионов и устроены стационарные мраморные трибуны для зрителей. На стадионах древнеримского периода профильная линия трибун для лучшей видимости делается вогнутой. Стадионы этого периода становятся архитектурно законченными объектами. В I в. до н.э. началось формирование такого вида древнеримского зрелищного сооружения, как амфитеатр. Впоследствии амфитеатры оказали определенное влияние на строительство современных спортивных арен. Ярким примером древнеримского амфитеатра является Коллизей. Особого внимания заслуживает величественное сооружение, предназначенное для соревнований в гонках на колесницах,



имевшее название гипподром, или Циркус Максимус. Это сооружение вмещало на своих трибунах до 250 000 зрителей.

**Средние века.** В IV в. н.э. в Риме стала пользоваться государственной поддержкой христианская религия. Церковь повела активную борьбу против римских зрелищ, собиравших десятки тысяч зрителей. Начался медленный упадок классической культуры, а вместе с ней и физической культуры. Распространение христианства, отрицающего культ человеческого тела и его гармоническое развитие, сопровождалось узаконенным разрушением множества крупнейших спортивных сооружений античного мира. После того как на смену античной культуре пришло христианство, по своим догмам отрицавшее культ человеческого тела, спортивные игры и соревнования были прекращены. Спорт совершенно утратил свое первоначальное значение и в средние века существовал только как обучение военному ремеслу или охоте на крупного зверя. Строительство специальных спортивных сооружений совершенно прекратилось. Раннее средневековье характеризуется полным упадком физической культуры. В X-XI вв. очень медленно начали развиваться некоторые целенаправленные формы физических упражнений. Предпосылкой к этому послужили начавшиеся в XI в. торговая колонизация Востока, крестовые походы и появившееся рыцарство. Свободное от походов время рыцари заполняли главным образом воинскими упражнениями и участием в турнирах.

Наряду с площадками и местами игр и гуляний для городских жителей, аристократия создавала в парках зрелищно-увеселительные объекты, как, например, плавательный бассейн в Вилла Мантальято в Риме, построенный в XVI в. Доменико Фонтано, или амфитеатр в саду Боболи во Флоренции XVII в. С этого же времени начали строить первые спортивные залы: фехтовальные или для игры в мяч



Рис.2. Фехтовальный зал в Милан

Период позднего средневековья - это период ломки феодального строя, зарождения буржуазной культуры, в том числе буржуазной физической культуры. От нового времени до наших дней. Только лишь в новые времена, начиная с XIX века, стала постепенно возрождаться роль спортивных сооружений, предназначенных для упражнений и для устройства состязаний.



Рис 3. Интерьер для дома для игры в мяч.

В 1806 году архитектор Луиджи Каноника построил в Милане овальную арену, используя классические римские образцы. Возведение этой арены можно считать началом строительства современных зрелищно-спортивных сооружений. Арена в Милане была предназначена для разнообразных публичных соревнований; ее можно было даже наполнять водой для проведения водных игр. Позднее арену переоборудовали под футбольное поле и устроили круговую беговую дорожку протяженностью 500 метров.

Эпоха современного спорта началась в гуманистических целях защиты здоровья людей от пагубного влияния индустриализации. П. Г. Линг вводит в обиход «шведскую гимнастику», что повлекло за собой строительство соответствующих гимнастических залов. В 1828 году в Ливерпуле, в Англии, был построен первый крытый плавательный бассейн, а в Голландии, в городе Бреде, в 1830 году - первый открытый плавательный бассейн. Футбол в своей нынешней форме появился в 1855 году, а специальные футбольные площадки начали строить на 30 лет позднее.

Прогресс строительной техники, появление новых материалов в строительстве привел, к тому, как это было в древние времена, ко многим изменениям в архитектуре спортивных сооружений, что в основном сказалось на формах крытых сооружений (спортивных залов, плавательных бассейнов), стадионов с трибунами большой емкости, а также на конструкции специальных устройств, например вышек для прыжков в воду. В функциональном отношении современные крытые спортивные объекты в основном сохранили

общие с древними сооружениями черты. Например, система античных греческих спортивных сооружений, в особенности эллинистического периода, во многом схожа с современными центрами физической культуры. Современные купальни в значительной степени соответствуют древнеримским термам, а современные спортивные павильоны - похожи на палестры.

Однако, несмотря на очевидное влияние на современное проектирование сложившихся за многие века приемов строительства спортивных сооружений, многие проектировщики зачастую не прибегают к накопленному историческому опыту, что приводит к возникновению архитектуры, уступающей своим качеством историческим аналогам, несмотря

на прогресс в сфере строительных технологий и материалов. На всех стадиях проектирования спортивных сооружений необходим более глубокий подход к всестороннему анализу истории становления и развития физической культуры и спорта в общественной жизни, а также основных тенденций международного спортивного и олимпийского движения на разных этапах его развития. Только с учетом данных аспектов можно с уверенностью говорить о качестве проектирования спортивных сооружений. Отечественное архитектурное проектирование также обязано установить новый уровень качества спортивных сооружений, что не может быть реализовано без обращения к сложившейся за многовековую историю теоретической и практической базе в области проектирования и строительства спортивных сооружений.

#### **СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННЫХ ИСТОЧНИКОВ:**

1. Ballgame imagery of the Maya Lowlands: History and Iconography // The Mesoamerican Ballgame. - Tucson: University of Arizona Press, 1991. - С. pp.251-288. - ISBN 0-8165-1360-0.
2. The Lords of Light versus the Lords of Dark: The Postclassic Highland Maya Ballgame // The Mesoamerican Ballgame. - Tucson: University of Arizona Press, 1991. - С. pp.213-238. - ISBN 0-81651360-0.
3. The Ballcourt in Mesoamerica: Its Architectural Development // Pre-Columbian Art History: Selected Readings. - Palo Alto, CA: Peek Publications, 1975. С. pp.63-69. - ISBN 0-917962-41-9.
4. Каратаев О.Р., Новиков В.Ф., Перикова Е.С., Шипилов Р.В. Спортивные сооружения: Учеб. пособие. - Казань: Казан. гос. энерг. ун -т, 2008.
5. Мячин И.К., Стародуб А.Э., Смирнов Б.М. Москва-80. Олимпийский путеводитель. - М.: Московский рабочий, 1980.
6. Мячин И.К., Стародуб А.Э., Смирнов Б.М. Москва-80. Олимпийский путеводитель. - М.: Московский рабочий, 1985.
7. Александров Ю.Н. Москва. Диалог путеводителей. - М.: Московский рабочий, 1985.
8. Ильин М.А. Москва. - М.: Искусство, 1993.
9. Давидовский П. Генезис «Песни о купце Калашникове». - Л., «Филол. записки», Воронеж, 1913, в. 4-5.
10. [www.museum.ru/News/archive/ mrList050220071103.htm](http://www.museum.ru/News/archive/ mrList050220071103.htm).

**Усмонов Эркин Тойирович**  
**Ассистент,**  
**Исматов Сардор Суннатиллоевич**  
**3-курс Архитектура гуруҳи талабаси**  
**Бухоро муҳандислик-технология институти**  
**(Бухара, Узбекистан)**

### **ЎРТА ОСИЁ ТАРИХИЙ ШАҲАРЛАРИНИНГ ҲАНДАСАВИЙ РИВОЖЛАНИШ ТАМОЙИЛЛАРИ**

**Аннотация.** *Мазкур мақолада Ўрта Осиё шаҳарларининг ҳандасавий ривожланиш тамойиллари ва тарихий шаҳарлар тархларида қўлланилган ҳандасавий (геометрик) шакллар (кватрат, тўртбурчак, айлана) тадқиқ қилинган. Ўрта Осиё шаҳарсозлигидаги ҳандасавий тамойилларнинг аънага айланиши ва ушбу шаҳарларнинг турли даврларда ва турли давлат тизими асосида ривожланиш динамикаси таҳлил қилинган.*

**Калит Сўзлар:** *Ҳандасавий, динамика, аънага, тамойил.*

### **ПРИНЦИПЫ РАЗВИТИЯ ИСТОРИЧЕСКИХ ГОРОДОВ СРЕДНЕЙ АЗИИ**

**Аннотация.** *В статье исследуются принципы геометрического развития центрально-азиатских городов, а также использование геометрических форм (квадрат, прямоугольник, круг) на чертежах исторических городов. Проанализирована динамика развития среднеазиатского урбанизма и динамика развития этих городов в разные периоды и в разные государственные системы.*

**Ключевые слова:** *Геометрический, динамика, традиция, принцип.*

### **PRINCIPLES OF DEVELOPMENT OF HISTORICAL CITIES OF CENTRAL ASIA**

**Annotation:** *The article examines the principles of the geometric development of Central Asian cities, as well as the use of geometric shapes (square, rectangle, circle) on the drawings of historical cities. The dynamics of the development of Central Asian urbanism and the dynamics of development of these cities in different periods and in different government systems are analyzed.*

**Keywords:** *Geometric, dynamics, tradition, principle.*

### **Кириш**


Меъморчилик ва шаҳарсозликнинг йиллар давомида ривожланиб бориши шаҳарларда ҳандасавий уйғунлашган муҳитларни шакллантириш муаммосини ҳал этишни тақозо этади. Бу муаммо ҳозирги даврда мустақил Ўзбекистоннинг шаҳарсозлигини ривожлантириш вазифаси билан боғлиқ ва жуда муҳимдир. Инсон учун шаҳар муҳитини уйғунлаштириш, меҳнат ва дам олиш учун қулай муҳит яратиш-меъморчилик санъатнинг профессионал вазифаси бўлиб, меъмор шаҳарлар ва қишлоқлар, тураржой мажмуалари, жамоат бинолари ва иншоотлари ҳамда боғлар лойиҳаларини яратишда у ҳар жойда уйғунлик муаммосини ҳал этишга дуч келади. Шундай қилиб,

шаҳарсозлик муҳитининг уйғунлиги нафақат эстетик, балки иштимой, нафақат инсоний шахс ўзининг қобилиятини ривожлантирадиган, инсонийлик, инсоний жамиятга ғамхўрлик қилаётган жойда ҳал қилиниши мумкин. Шаҳарсозлик атроф-муҳитининг турли хил ғоялари билан уйғунлиги меъморчиликнинг кўп жиҳатларига тааллуқли мавзу. Катта ва кичкина занжирдаги алоҳида жой фақат лойиҳа ва ҳандасавий (геометрик) алоқаларни алоҳида структура ва доимий ривожланиши, ўзгариш ва янгилинишдаги шаҳар ансамбллари ҳудуди доирасида мувофиқлаштириш воситаларига тегишли.

### **Асосий қисм**

Ўрта Осиё тарихий шаҳарлари қуйидаги босқичларда ривожланган бўлиб ўзида ҳандасавий (геометрик) тамойилларни намоён этади.

Ўрта Осиё ҳудудида милоддан аввалги IV-III минг йилликларга оид қуйи Амударё ҳавзаси этакларида Аджикуй ва юқори Зарафшон воҳасида Саразм маданияти археологик тадқиқ қилинган. Бу қароргоҳларда турли мақсадларда хом ғишт ва пахсадан қурилган қатор хоналар очиб ўрганилган. Сурхандарё вилоятида эса мил.авв. XVII-XIV асрларга оид 82x82 метр ўлчамли Сополли тепа ёдгорлиги тадқиқ қилинган. Квадрат кўринишли бу кўрғоннинг ҳар бир томони бири каттароқ иккинчиси эса ундан кичикроқ бўлган иккита узунчоқ тўрт бурчаклар кўринишли йўлаксимон хоналар ташкил топган.




*Сополлитена (м.ав.XVIII-XIV асрлар).*

Демак, бу Сополли тепа ёдгорлигида илк ҳандасавий (геометрик) тамойилларнинг моҳирона қўлланилиши, ундаги геометрик шакллар, тўғри тўртбурчак, квадратлардан ўзгача қиёфадаги уйғунлик ғояси асосида яратилган бу ёдгорлик, Ўрта Осиё ҳудудида шаҳарсозликнинг ривожланишини кўрсатади ва Ўрта Осиё ҳудудида анъанага айланишига асос бўлади ҳамда Амир Темур даврида ҳам чодир шаҳар сифатида давом этади.


Дастлабки шаҳарлар тўғрисида маълумот зардуштийлар китоби “Avesto” да мавжуд. Унда «вар» тўғрисида сўз юритилади. Ибора сўғд тилида “кўрғон” маъносини билдиради. Шу даврларда пайдо бўлган истеҳкомлар сифатида ўтган Далварзин ҳамда Варахша кабиларни киритиш мумкин.

Бу кўринишдаги шаҳарлар қадимги Хоразм (ҳозирги Хоразм вилояти, Қорақолпоғистон ҳамда қисман Туркманистон) мисолида яхши ўрганилган ва вар деб ном олган қалъалар мисолида маълум. Қалъали қир, Қўнирли қалъа, Анққа қалъа, Аёз қалъа, Қўрғошин қалъа, Кўзали қир, Бозор қалъаларни кўрсатиш мумкин.



*Анққа қалъа. Вар ёки Вара кўринишдаги чодирли шаҳар.*

Ўрта Осиё худудида ҳандасавий (геометрик) жиҳатдан ривожланган шаҳарсозликнинг яна бир турини кўришимиз мумкин. Бундай шаҳарлар ўртасидан марказий кўча кесиб ўтган, шаҳар тўрида маъмурий, савдо, жамоат бинолари жойлашган, тўртбурчак шаклдаги дуал шаҳарлар. Бундай кўринишдаги шаҳарлар, Жонбоз қалъа, Тупроқ қалъа мисолида сақланиб қолган.



*Жонбоз қалъа. Дуал шаҳар тузилиши.*

Ўрта Осиё шаҳарсозлигининг ҳандасавий тамойиллар асосида ривожланиб бориши кейинчалик ўрта асрларда Арк, шахристон ва работдан ташкил топган уч қисмли шаҳарлар яъни Мовароуннаҳр шаҳарлари ташкил толади. Шаҳарларнинг композицион бу тури, қўлланилган анъанавий ҳамда мураккаблашган ҳандасавий тамойил асосида барпо қилинган. Бу шаҳарларнинг мураккаб дейишимиз, бунда Вар кўринишидаги ҳандасавий

тамойилдан тўрт дарвоза рубъа шаклланган бўлса дуал шаҳарларга хос бўлган арkning вужудга келиши ўрта аср шаҳарларининг бошқарув қисmlарини вужудга келишини белгилайди. Бундай шаҳарлар ташқарисида рабоднинг юзага келиши уч қисм (арк, шахристон, рабод) ли бўлиб геометрик жиҳатдан айлана шаклда, шаҳарларнинг вужудга келишига асос бўлади. Бундай шаҳарларнинг шаклланиши ва ривожланишида Буюк Ипак йўлининг ривожланиши билан боғлиқ.

Ўрта Осиёга XIX асрнинг иккинчи ярмида рус қўшинларининг кириб келиши шаҳарсозликка ўз таъсирини кўрсатди. Руслар Тошкент, Самарканд, Қўқон, Андижон, Наманган каби эски шаҳарларга тескари қилиб, янги ҳудудда ўз шаҳарларини кура бошлади.

Рус муҳандислари Ўзбекистонда қурган ўз шаҳарларининг асоси сифатида дастлаб Версальда қўлланилиб, кейинчалик Санкт-Петербург, Вашингтон ва бошқа шаҳарлар лойиҳаси учун асос қилиб олинган уч нурли композициядан фойдаланишди. Унга биноан эски шаҳарнинг арки жойлашган ҳудуд ёки унга туташ жойда ўз қалъаларини ва ундан ўткир бурчак остида уч нур остида таралиб турадиган уч кўчани чиқардилар. Шу йўсинда радиал-ҳалқали композициянинг асоси яратилди.

Хулоса қилиб айтганда, Ўрта Осиё шаҳарсозлигида қўлланилган геометрик шаклларнинг (квадрат, тўртбурчак, айлана) йиллар давомида меъморчиликда аънамага айланиши, ҳандасавий тамойиллар асосида шаҳарларнинг ривожланганлигини ва бу тамойиллар асосида шаҳарларни ўсиш динамикасини кўриш мумкин.

Шунинг учун замонавий шаҳарсозлигимизни ҳандасавий тамойиллар асосида ривожлантириш боскичида, назария амалиётга фаол таъсир кўрсатади. Бу архитектура санъати билан тўғридан-тўғри боғлиқ бўлиб, ўтмишдаги шаҳарсозлик тараққиётини қайта кўриб чиқиб ҳамда чуқур билимга эга бўлсак, шаҳарларимиз гўзал ва бетакрор ҳамда барқарор ривожланиб боради.

### **СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННЫХ ИСТОЧНИКОВ:**

1. M.S. Bulatov. Geometricheskaya garmonizasiya v arxitekture Sredney Azii IX-XV vv. Moskva 1988.
2. M.Q. Axmedov, D.A. Nazarova, A.O. Hasanov. O'zbekiston arxitekturasi va shaharsozligining taraqqiyot yo'llari, Toshkent-2016 y.
3. X. Po'latov. Pўлатов. Shaharsozlik tarixi, Шаҳарсозлик тарихи, Toshkent-2008 y.

УДК 323.(575) 072

Хайдарова Мунира Алишеровна  
магистрант  
(Самарканд, Узбекистан)

### ТАРИХИЙ ШАҲАР МАҲАЛЛА МАРҚАЗЛАРИ АРХИТЕКТУРАСИНИ САҚЛАШ ВА ҚАЙТА ТИКЛАШ

**Аннотация.** Мақолада тарихий шаҳар маҳаллаларини шаклланиш масалаларини, туристлар эҳтиёжини қондириш мақсадида архитектура ёдгорликларидан фойдаланиш тамойилларини ишлаб чиқиш. Ёдгорликларнинг умр-боқийлиги, улардан тўғри ва рационал фойдаланиш. Ўзбекистон шаҳарларининг тарихий қисмларидаги маҳаллаларнинг муҳофаза ҳудудларини ташкил этиш, уларни таъмирлаш ва қайта тиклаш муоммоларига бағишланган

**Калит сўзлар:** маҳалла мадания, меърос, археология, цивилизация, қадимий, анъанавий, статистик, обидалар, муқаддас қадамжолар, масжид, мадрасалар, комплекс, цивилизация, археология, объект.

**Аннотация.** В статье рассматривается формирование исторических городских кварталов, разработка принципов использования памятников архитектуры для удовлетворения потребностей туристов. Долговечность памятников, их правильное и рациональное использование. Он посвящен проблемам организации, ремонта и восстановления особо охраняемых природных территорий махаллей в исторических частях городов Узбекистана.

**Annotation:** The article deals with the formation of historical urban neighborhoods, the development of principles for the use of architectural monuments to meet the needs of tourists. The longevity of monuments, their correct and rational use. It is devoted to the problems of organization, repair and restoration of protected areas of mahallas in the historical parts of the cities of Uzbekistan.

Президентимиз Ш.М. Мирзиёев томонидан қатор қонун ҳамда фармонлар чиқарилмоқда, жумладан, Ўзбекистон Республикасининг архитектура ва шаҳарсозлик тўғрисидаги, Ўзбекистон Республикасининг маданият меърос объектларини муҳофаза қилиш ва улардан фойдаланиш тўғрисидаги Қонунлари, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 2 апрелдаги “Қурилиш соҳасида давлат бошқаруви тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-5392-сон Фармони, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 16 январдаги “Моддий маданият ва археология мероси объектларини муҳофаза қилиш ва улардан фойдаланишни такомиллаштириш тўғрисида”ги фармойишлари ва бошқа кўплаб норматив ҳужжатлар қабул қилинган бўлиб, улар ўз навбатида соҳада олиб борилаётган кенг кўламли ишларни ҳуқуқий асоси бўлиб, уни ривожига ҳисса қўшмоқда.



Хозирги кунда бу мавзунинг долзарблиги биз биламиз дунё халқлари қадимий халқларнинг яшаш тарзини, урф-одатларини, қадимда нималар билан шуғулланганлиги, меъморчилиги билан яқиндан танишиш, ўрганиш, яқиндан билиш ниятидаги туристлар кўплаб топилади. Шунинг учун биз тарихий урф-одатларимизни, ёдгорликларимизни яқиндан танитиш учун юртимиздаги бундай юзлаб обидаларни қайта тиклаши(реконструкция)миз ҳамда дунёга танитишимиз шарт.

Президентимиз Ш.М. Мирзиёев томонидан ЮНЕСКО ходимларига берилган ваъдалар асосида ушбу тарихий шаҳарлар устида қатъий назорат ишлари олиб борилиши белгилаб қўйилган.

Ўзбекистон қадимдан юксак маданият, илм-фан ва меъморий обидалари билан кўпчилики хайратга солиб келган юртимиз истиклол шарофати билан замонавий сайёҳлик марказига айланмоқда. Мамлакатимиз ҳудудида турли давр ва цивилизацияга дахлдор тўрт мингдан ортиқ қадимий меъморлик ва санъат ёдгорликлари мавжуд. Улардан 140 таси ЮНЭСКО томонидан муҳофазага олинган тарихий объектлар рўйхатига киритилган. Айнан маданий-тарихий меросимиз, мангуликка дахлдор кўҳна шаҳарларимиздаги ноёб меъморий обидалар Ўзбекистоннинг халқаро сайёҳлик бозоридаги юксак салоҳиятидан далолат беради. Самарқанд шаҳрида ҳам мазкур йўналишда муайян ишлар амалга оширилмоқда.

Республикамизда тарихий ва маданий муҳитни сақлаш (муҳофаза қилиш) ва улардан замонавий мақсадларда фойдаланиш бўйича мустақиллик йилларида катта ютуқларга эришилди. Ўзбекистон Республика Конституциясига меъморий ва тарихий ёдгорликларни сақлаш ғояси киритилган ва уларнинг илм- фан, маданият, халқ таълимининг ривожланишидаги аҳамияти аниқлаб берилган.



Тарихий шаҳар маҳаллаларини шаклланиш масалаларини, туристлар эҳтиёжини қондириш мақсадида архитектура ёдгорликларидан фойдаланиш тамойилларини ишлаб чиқмасдан туриб, бу муаммони ечиш мумкин эмас. Ёдгорликларнинг умр-боқийлиги, улардан тўғри ва рационал фойдаланишга ҳам боғлиқдир, демак тарихий шаҳарларнинг бетақроғ ўзига хослиги ҳам улардан қандай қилиб ва қайси мақсадларда фойдаланишга боғлиқдир.

Самарқанд тарихий шаҳарларидаги маҳаллалар ва маҳалла марказларини қайта тиклаш, аънавий уйларни сақлаш тамойиллари бўйича шаҳарсозликнинг ягона комплекс таянч режаси йўқлиги сабабли асосий эътибор ушбу масалага қаратилади. Ўзбекистон шаҳарларининг тарихий

қисмларидаги маҳаллаларнинг муҳофаза худудларини ташкил этиш, уларни таъмирлаш ва қайта тиклаш муоммоларига бағишланган.

Айниқса анъанавий халқ уйлари ва маҳаллаларни сақлаш ва қайта тиклаш бу нафакат кадриятларимизни тиклаш ва сақлаш, бунинг асосида эса шу маҳаллаларда истикомат килаётган аҳолининг турар жой шароитини яхшилаш. Турар жой муаммосини хал қилиш, аҳолининг иш билан таъминлаш каби бир канча хаётий муҳим ижтимоий муаммоларни бир-бирига боғлиқ ҳолда ҳал этилмоғи лозим. Бундан ташқари анъанавий халқ уйлари, маҳаллалар ва уларнинг марказлари қайта тиклаш билан бир қаторда маданий-маъиший хизмат курсатиш объектларини жойлаштиришни комплекс олиб бориш бугунги куннинг долзарб масалалардан биридир.

Ҳозирги кунда Ўзбекистон тарихий шаҳар марказларини сақлаш ва қайта тиклаш ҳамда тураржойлар, маҳаллаларнинг лойиҳа ишларини қайта ишлаб чиқиш долзарб муаммоларидан бири бўлиб қолмоқда. Айниқса мустақиллик йилларида Самарқанд, Бухоро, Хива ва Шаҳрисабз шаҳарларининг тарихий марказлари ўзбошимчалик билан бузиб ташлаган, уларнинг ўрнига умуман тарихий муҳитни ўзгартириб юбориш ҳоллари кўп учрамоқда.

Самарқанд деганда, авваламбор, Ўзбекистонимизнинг гавҳари бўлган гўзал диёр кўз ўнгимизда намоён бўлади. Истиқлол йилларида бу маскан янада чирой очди. Самарқанд шаҳрининг юбилейлари жаҳон миқёсида нишонланиши хорижликларнинг бу заминга бўлган қизиқишини янада орттириб, сайёҳлик салоҳиятини юксалишига хизмат қилмоқда.

Айни пайтда Самарқандга ташриф буюраётган меҳмонлар учун сайёҳлик йўналишлари ташкил қилинмоқда. Янги сайёҳлик йўналишлари-буюк бобомиз Амир Темур томонидан бунёд этилган мажмуалари бўйлаб уюштирилаётган экскурсиялар сайёҳларда катта таассурот қолдирмоқда. Миллий ҳунармандчилик маҳсулотлари кўрғазмасининг ташкил этилиши ҳам янги имкониятларга йўл очмоқда.

Шаҳримизда бугунги кунда 50 дан ортиқ сайёҳлик фирмаси фаолият кўрсатаётган бўлиб, яқин кунларда бундай фирмалар сони яна 2 бараварга кўпайиши кутиляпти. Бундай фирмаларнинг кўпайиши, юртимизга келаётган сайёҳларга хизмат кўрсатиш даражасини ошишига ҳамда юртимизнинг нурли тарихини дунё халқларига танитиш учун хизмат қилади.

Бугунги кунда республикаимиз худудидаги тарихий обидалар, муқаддас қадамжолар, масжид, мадрасалар, тарихий боғлар ва бошқа ноёб тарихий ёдгорликларни уларнинг тарихий қийматига зарар етказмай таъмирлаш, уларни ободонлаштириш, дунёга танитиш ва Ўзбекистонни туристик салоҳиятини янада ошириш, ҳамда бундай жойлар атрофидаги боғларни замонавий ва янгича кўринишда ташкил қилиш; мавжуд шаҳарсозлик тўғрисидаги қонунчилиқни, аҳоли пунктларини реконструкция қилиш ва ободонлаштиришда, ишлаб чиқариш, ижтимоий ва муҳандислик-транспорт инфратузилмаси объектларини қуришда шаҳарсозлик нормалари ва қоидалари талабларини қўпол равишда бузиш ҳолларининг олдини олиш, қурилиш соҳаси олдида турган муҳим муаммолардандир.

Юқорида келтириб ўтилган фикр ва мулоҳазалардан келиб чиққан ҳолда, қадимий шаҳарларда анъанавий турар-жойларни замонавий руҳдаги

биноларни қадимий ёдгорликлар атрофида уйғунлаштириб барпо этишимиз мумкин.

**Муаммонинг ўрганилганлик даражаси.** Ҳалқимиз олис ўтмишидан бошлаб тарихнинг барча даврларида шаҳарсозлик маданиятида, гўзал иншоотлар, иморатлар қуриш борасида бунёдкор миллат сифатида шухрат қозониб келган. Истиқлол йилларида ҳалқимизга асрлар давомида шаклланган шаҳарсозлик маданиятини юксалтириш йўлидаги бунёдкорлик ишларига кенг йўл очиб берилди.

Мамлакатимиздаги йирик шаҳарлар, воҳалар, туманлар марказлари замонавий ва миллий режа асосида қайта қурилиб, тикланмоқда ҳамда янгидан бунёд этилиб, гўзал қиёфа касб этмоқда. Шундай янги шаҳарсозлик намунаси энг қадимий шаҳарлардан бири ҳисобланади. Кейинги йилларда археолог олимлар Самарқанд шаҳри ва унга яқин жойларда олиб борилган қазилма ишлари натижасида шаҳар остида олис тарихга оид маданий қатламларни топдилар. Буларнинг ҳаммаси шаҳарнинг ёши 3 минг йилдан кам эмаслигини кўрсатмоқда. Самарқанд шаҳри тарихи ҳақидаги ёзма маълумотлар араб манбаларида ҳам учрайди. Ўрта Осиё ҳамда Европа олимлари, юртимизнинг бой тарихи ва тарихий обидалари устида кўплаб изланишлар олиб боришган. Таъкидлаш зарурки, юқоридаги бизга маълум бўлган тарихий ёзма манбалар ва мавжуд илмий адабиётларда берилган маълумотлардан ўрта аср миллий шарқона қадимий аънавий турар-жойларимизни ҳаётга янгидан жорий қилиш мақсадида фойдаланиш мумкин. Бироқ, бу соҳадаги замонавий илмий тадқиқотлар ва ижодий лойиҳавий изланишлар Республикамизда эндигина ривожланмоқда десам хато қилмайман. Чунки ҳаётимизнинг барча соҳаларида амалга оширилаётган улкан ўзгаришлар каби қадимий аънавий турар-жойлар архитектураси шаклланиши санъатида ҳам илғор тарихий миллий меросимизга қайтишимиз ва уларни тиклашимизга чуқур маънавий эҳтиёж сезилмоқда.

**Тадқиқотнинг мақсади.** Самарқанд қадимий шаҳарида аънавий турар-жойларнинг шаклланиши, жумладан, 100дан зиёд тарихий обидаларни, хали ўрганилмаган, ўрганишга улгурилмаган турар-жойларни топиш, ўрганиш ҳамда дунё халқларига кўрсатиш ва бундай биноларимизни кейинги авлодларга қолдириш. Диссертация мақсадидан келиб чиққан ҳолда куйидагилардан иборат:

- қадимий шаҳаримиздаги аънавий турар-жойларнинг шаклланиши, бундай турар-жойларни сақлаш, уларнинг атрофида замонавий қадимий аънавий турар-жойларни қайта тиклаш, ландшафт архитектурасини шакллантириш ва уйғунлаштиришнинг ўзига хос хусусиятлари очиб бериш;

- Мустақиллик йилларида қадимий аънавий турар-жойларни шаклланиши архитектураси бобида амалга оширилган ишларни таҳлил қилиш ва умумлаштириш;

- қадимий аънавий турар-жойларни шаклланиши юзасидан илғор йўналишларини аниқлаш ва уларни ривожлантириш бўйича таклифлар ишлаб чиқиш.

- қадимий аънавий турар-жойлар ҳудудларини тиклашни ташкил қилиш, қадимий аънавий турар-жойлар ҳудудларида, ландшафт архитектурасини ривожлантириш тамойиллари ва унинг ахамиятини ўрганиш;

Тадқиқот жараёнида тизимли таҳлил, кузатув, статистик гуруҳлаш, йўналтирилган саралаш, тажрибаларни ўрганиш, умумлаштириш ва тарихий ёндашув каби усулларидан фойдаланилади.

Хулоса қилиб шуни айтиш мумкинки, ҳозирги кунга қадар Ўзбекистонда Самарқанд шаҳрида қадимий анъанавий турар-жойларни сақлаш тамойиллари тарихий меъморий-режавий, лойиҳавий ва ландшафт ечимларига хос тамойиллар илмий ёритилиб, уларнинг мазмун ва моҳияти чуқур очиб берилмаган. Анъанавий турар-жойларни сақлаш тамойиллари концептуал меъморий дастури ишлаб чиқилмаган ва бунинг натижасида тарихий қадимий анъанавий турар-жойларни сақлаш қайта тиклашнинг илмий имкониятлари яратилмаган.

Мақоланинг илмий аҳамияти шундаки Самарқанд шаҳрида қадимий анъанавий турар-жойларнинг шаклланиши, сақлаш соҳасида билимларни кенгайтириш ва бойитиш билан бирга ва илмий асослари ҳамда амалий-лойиҳавий таклифлар ишлаб чиқишда кенг имкониятлар яратади.

#### **СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННЫХ ИСТОЧНИКОВ:**

1. Ш.М. Мирзиёев. “Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қураимиз”. “Ўзбекистон” нашриёти. Тошкент 2017 й.
2. В.А. Булатова «Жилой комплекс VII века в Куве» //История материальной культуры Узбекистана. Вып.7. Ташкент, 1966.
3. В.А Нильсен, В.И. Манакова «Архитектурный декор памятников Узбекистана».Л., 1974.
4. Д.А. Нозилов.»Марказий Осиё меъморчилигида хона билан боглик рамзий урф одатлар»//. Вестник ТошДТУ. Хабарлар.Тошкент, 2002. 4 - сон.

**SECTION: PHYSICS AND MATHEMATICS**

Igilikov Aybek Jarlqasinovich  
 assistent o'qituvchi,  
 Kalibaeva Gulayim Karlibaevna  
 1-kurs magistrant  
 Nukus davlat pedagogika instituti  
 (Nukus, Uzbekistan)

**SIMMETRIYALI ALGEBRAIK TENGLAMALAR SISTEMASINI YECHISH**

**Аннотация.** В этой статье приведены примеры и задачи для студентов, повышающие интерес к математике. Эти примеры и задачи имеют большое значение в развитии их навыков и знаний.

**Ключевые слова:** система, уравнение, задача, математика, теорема, симметрия, квадрат, преобразование.

**Abstract.** In this article given examples and problems for students rising their interest to mathematics. These examples and problems have great meaning in developing their skills and knowledge.

**Keywords:** system, equation, task, mathematics, theorem, symmetry, square, overextension.

Tenglamalar sistemasini yechishda bir nechta ayniy almashtirishlar qo'llaniladi, ya'niy berilgan tenglamalar sistemasini ketma-ket boshqa tenglamalar sistemasini bilan almashtirilib, ma'lum usullar bilan yechiladigan soddaga tenglamalar sistemasiga olib kelinguncha davom etadi.

Tenglamalar sistemasini yechish deganimiz – ularni qanaotlandiradigan hamma yechimlarini topish. Umumiy holda tenglamalar sistemasining yechimi deb, belgisizlarning o'rniga olib borib qo'yganda ularni sonli tenglikka aylantiradigan son va sonlar juftiga aytamiz.

Yechimlarni topishda tenglamalar sistemasining yechimlarini yo'q qilishga yoki boshqa yechimlarga olib keladigan ayniy almashtirishlarni qo'llanishga bo'lmaydi. Sababi ayniy almashtirishlar natijasida olingan tenglamalar sistemasini berilganga solishtirganda ortiq yechimga ya'niy boshqa yechimga ega bo'lishi mumkin.

Tenglamalar sistemasini – bir nechta o'zgaruvchili tenglamalar to'plami bo'lib, ularda bitta nomdagi o'zgaruvchilar birxil miqdorlarni bildiradi.

Quyidagi tenglamalar sistemasini berilgan bo'lsin

$$\begin{cases} f_1(x, y) = 0, \\ f_2(x, y) = 0. \end{cases}$$

Bunda  $f_1(x, y)$  va  $f_2(x, y)$   $x$  ti  $y$  ga,  $y$  ti  $x$  ga almashtirganda o'zgaraydigan ya'ni simmetriyalik ko'phad bo'lsin. Bunday tenglamalar sistemasi simmetriyalik algebraik tenglamalar sistemasi deb ataladi.

Ushbu ko'rsatilgan turga tegishli

$$\begin{cases} x + y = a \\ xy = b \end{cases} \quad (1)$$

sistemani yechishning usulini ko'ramiz. Usulning mazmunini yechish yo'li quyidagi teoremda berilgan.

